

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xojimurodova Muxlisa Fayzulla qizi

Yangi Asr Universiteti

Ingliz tili o'qituvchisi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini chuqur o'zlashtirish har bir insonning hayotida zarur kommunikativ ehtiyojga aylandi. Ingliz tili xalqaro aloqa, biznes, ta'lim, ilm-fan va texnologiyalar tili bo'lib, unga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli ingliz tili ta'limini takomillashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish kabi vazifalar davlat miqyosidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar – kelajagimiz" tamoyili asosida ta'lim tizimini tubdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-sonli qarorida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Bu esa zamonaviy ta'limda an'anaviy yodlash va tarjima qilish modelidan voz kechib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interaktiv metodlar – bu ta'lim jarayonini faollashtirish, o'quvchilarni o'qitish jarayonining passiv obyektidan uning faol subyekti darajasiga ko'tarishga xizmat qiluvchi usullar majmuasidir. "Interaktiv" so'zi lotincha "interactio" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sir" degan ma'noni anglatadi. Interaktiv yondashuvning asosiy mohiyati shundaki, bunda o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki dars jarayonini tashkil etuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. O'quvchilar esa fikrlashga, o'z fikrini erkin

bayon etishga, mustaqil izlanishga va ijodiy ishlashga o'rgatiladi.[1]

Interaktiv metodlarning ta'limdagi ustuvor jihatlari:

- O'quvchining kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi.
- Bilimlarni mustahkamlash va qo'llash imkoniyatlari oshadi.
- O'quvchilarda muloqot madaniyati shakllanadi.
- Jamoada ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi.
- O'qitish jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi.

Zamonaviy didaktikada ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni tatbiq etish til o'rgatishning nutqiy-amaliy yo'nalishini kuchaytiradi. Til bu – kommunikatsiya vositasi bo'lgani uchun uni amaliy muloqot asosida o'rganish talab etiladi. Shuning uchun ham Rolls metod, Aqliy hujum, Klaster, Jigsaw, Sinkveyn, Debat, Rol o'ynash, Savol-javob, Think-Pair-Share kabi interaktiv usullar ingliz tili darslarida keng qo'llanilishi mumkin.[2]

Ingliz tilini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati mavzusi bugungi kunda ta'lim sohasining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u nafaqat lingvopedagogik, balki psixologik va ijtimoiy jihatlardan ham chuqur o'rganishni talab etadi. Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitishning asosiy maqsadi til o'rganuvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, o'rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, o'z fikrini erkin bayon etish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va to'g'ri xulosaga kelish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa ingliz tili ta'limida bunday yondashuvning o'rni beqiyosdir, chunki ingliz tili amaliy muloqot vositasi sifatida xalqaro miqyosda keng qo'llanib, ilm-fan, texnologiya, biznes va diplomatiyada asosiy kommunikatsion til hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tilini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish zaruriy ehtiyoj bo'lib, uning samarali qo'llanilishi o'quvchilar faoliyatini faollashtirish, darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etish hamda ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Interaktiv metodlar, odatdagidek, o'quvchi shaxsining faolligiga tayanadi va unda tahliliy, mantiqiy hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga

xizmat qiladi. Bunday metodlar ta'lim jarayonini bir yoqlama bilim berishdan iborat jarayon emas, balki ikki tomonlama muloqot, fikr almashish va hamkorlikdagi faoliyat asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Interaktiv metodlar — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotga asoslangan ta'lim usullari bo'lib, ular orqali bilim o'zlashtirish ko'proq fikrlash, izlanish, bahslashish va hamkorlikda yechim topish jarayoni orqali shakllanadi. Interaktiv metodlarning afzalligi shundaki, ular har bir o'quvchini dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, nutqiy faolligini oshiradi va o'rganilayotgan mavzuni chuqur anglashga yordam beradi. An'anaviy darslarda o'quvchi ko'pincha tinglovchi rolda bo'lsa, interaktiv darslarda u faol suhbatdosh va muhokama ishtirokchisiga aylanadi.

Ingliz tili ta'limida interaktiv metodlardan foydalanish tilning to'rt asosiy ko'nikmasi — tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini birgalikda shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faoliyat kompetensiyasi, jamoada ishlash va axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi ham rivojlanadi. Interaktiv metodlarning samarali bo'lishi uchun dars jarayonida o'quvchilarni erkin fikrlashga undash, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonida demokratik hamkorlik muhiti yaratish muhimdir. Ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar ichida “Aqliy hujum” (Brainstorming), “Klaster” (Cluster), “Fishbone”, “Debat”, “Rol o'ynash”, “Jigsaw”, “Sinkveyn” kabi metodlar keng tarqalgan. Ularning har biri til o'rgatishda alohida maqsadlarga xizmat qilib, kommunikativ darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi.[3]

Masalan, “Aqliy hujum” metodi orqali o'quvchilarda muayyan mavzu doirasida tezkor fikrlash, o'z fikrini erkin bayon etish va yangi g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi. Bu metod ingliz tili darslarida yangi mavzuni kirish qismida aniqlash, mavjud bilimlarni aniqlash yoki mavzuga oid muammoli savollarni muhokama qilish jarayonida juda qulay hisoblanadi. “Klaster” metodi esa o'quvchilarning mavzu bo'yicha fikrlarini tartibga solish, asosiy tushunchalarni aniqlash va o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. “Rol

o'ynash" metodi yoki "Role play" ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biridir. Unda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib, amaliy muloqot orqali tilni o'rganadilar. Masalan, "In the shop", "At the airport", "At the hotel", "Asking for directions" kabi mavzularda o'tkazilgan rol o'yinlari o'quvchilarning real hayotda inglizcha muloqot qilishga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va ularni faol suhbatlashuvga tayyorlaydi.[6]

Interaktiv metodlar qo'llaniladigan darslarda vaqtni to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega. Aks holda, dars rejasiz va tartibsiz o'tib ketishi mumkin. Shuningdek, interaktiv ta'lim uchun qulay psixologik muhit yaratish juda zarur. O'quvchilar o'zlarini erkin his qilishi, xato qilishdan qo'rqqanligi, o'z fikrini erkin ayta olishi kerak. Aks holda, interaktiv metodlarning samarasi past bo'ladi.

Interaktiv metodlardan foydalanishda o'qituvchining kasbiy mahorati ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi interaktiv metodlarning mazmun-mohiyatini chuqur bilishi, ularni maqsadga muvofiq tanlay olishi va dars jarayonida samarali qo'llay olishi kerak. Har bir metodni qo'llashda uning didaktik ahamiyati, qo'llash shartlari, afzallik va kamchiliklari inobatga olinishi zarur. O'qituvchi shuningdek, dars davomida o'quvchilarni rag'batlantirib borishi, ularning fikrlarini qadrlashi va ijobiy baholashi lozim. Shunda interaktiv ta'lim jarayoni o'quvchilarda ishtiyoq, qiziqish va ijodiylikni oshiradi.[4]

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish til o'rgatishning zamonaviy tendensiyalariga mos keladi va ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar tilni nafaqat grammatik qoidalar tizimi sifatida, balki real muloqot vositasi sifatida o'rganadilar. Bunday metodlar ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Interaktiv metodlar o'quvchilarning o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi va ta'lim-tarbiya jarayonini hayotiy ehtiyojlarga moslashtiradi. Natijada, interaktiv metodlar yordamida o'tkazilgan ingliz tili darslari o'quvchilarni hayotga tayyorlaydi, ularni global kommunikatsiya maydonida faol ishtirok eta oladigan

shaxs sifatida shakllantiradi. Shunday ekan, ingliz tilini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish bugungi ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u kelajak avlodning intellektual salohiyatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev Q. Ta'limda interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 45–57-betlar.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 112–130-betlar.
3. Hasanov B. Interaktiv metodlar asosida ingliz tilini o'qitish tajribalari // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2021. – №2. – 33–38-betlar.
4. Ziyodova D. Ingliz tili darslarida “Role Play” metodini qo'llash samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. – 2022. – №6. – 74–80-betlar.
5. Mahkamova D. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2018. – 59–64-betlar.
6. Usmonov B. Interfaol ta'lim metodlari va ularning afzalliklari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 23–29-betlar.
7. Soliyeva N. Foreign Language Teaching Through Multimedia Technologies. – Tashkent: TES, 2021. – 88–95 pages.